NAVOIY VILOYATI ZARAFSHON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

2024-yil 31-oktabr | 288-5-78-Q/24 | Zarafshon shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Aholi bandligi toʻgʻrisida" 642-sonli Qonunning 38, 39-moddalari, "Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlari toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunning 43-moddasi (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2020-yil 15-oktyabr, OʻRQ-641-son), Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi boʻlgan shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning bandligiga koʻmaklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-57-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida" 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan 2025-yil uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunning 6, 25-moddalari hamda shahar kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimining 2024-yil 27-sentabrdagi 18/02-01/14-1959-son xatiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Belgilanishi kerak boʻlgan ish oʻrinlarining eng kam sonini va ularga qoʻyiladigan talablarni aniqlash boʻyicha maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga, shahar boʻyicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun band qilib qoʻyish lozim boʻlgan korxona, tashkilot va muassasalar roʻyxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. "Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunning 39-moddasiga asosan shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun xodimlarning oʻrtacha soni 20 nafar va

undan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun 7 foizgacha miqdorda jami 232 nafarni tashkil etadi, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 20,2 foiz 47 (nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 33,6 foiz 78 (nafar);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 12,2 foiz 29 (nafar);

nogironlar bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 11,8 foiz 28 (nafar);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun 1,2 foiz 3 (nafar);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanil-gan shaxslar uchun 9,7 foiz 23 (nafar);

qonunchilikka muvofiq oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar (himoya orderiga) ega bo‘lgan shaxslar uchun 6,3 foiz 15 (nafar);

qonunchilikka muvofiq atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekayotgan shaxlar uchun 2,1 foiz 5 (nafar);

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1,7 foiz 4 (nafar).

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lganligini hisobga olgan holda ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

nogironlar bo‘lgan shaxslar toifasi uchun - o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar tofasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan, yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar tofasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

qonunchilikka muvofiq oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar (himoya orderiga) ega bo‘lgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

qonunchilikka muvofiq atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalari rahbarlariga: “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi nizomga (keyingi o‘rinlarda - Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun korxona va tashkilotlar 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yib hamda bu haqda yil boshlanguniga qadar shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilishi shart;

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2025-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak yakunlanganidan keyin 10 kundan kechikmay https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali ish o‘rinlari zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin;

Tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasigacha shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

Tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘lim tomonidan shahar hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5. Shahar hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi qayd etilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3163) asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun o‘n ikki-oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya ajratilishi shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (keyingi o‘rinlarda KQ va BKB deb yuritiladi) direktori (M.Djurayev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (M.Djurayev) mazkur qarorni o‘n kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilishi ta’minlasin.

8. Shahar hokimligi Matbuot kotibi (Lavozimga ko‘ra), “Oltin vodiy” gazetasi tahririyati (G.Bobomurodova) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini, mazkur qaror shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi hamda davlat hisobiga olinishi uchun shahar adliya bo‘limiga yetkazilishi ta’minlansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Shoxmirzayev zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur qaror rasman 2025-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

Shahar hokimi **N. Rahmanov**

Zarafshon shahar hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
288-5-78-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Shahardagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish talablarni aniqlash boʻyicha maxsus komissiya

T A R K I B I

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	A.Shoxmirzayev	Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish boʻlimi boshligʻi, **komissiya raisi**
2.	M.Djurayev	Zarafshon shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlim boshligʻi, **komissiya raisi oʻrinbosari**
AʼZOLARI		
3.	L.Tursunova	Zarafshon shahar hokimining oʻrinbosari – oila va xotin qizlar boʻlimi boshligʻi
4.	S.Uvaytov	Zarafshon shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari
5.	N.Niyozov	Zarafshon shahar Mudofaa ishlari boʻlimi boshligʻi p-p/k
6.	U.Azizov	Budjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi shahar boʻlimi boshligʻi
7.	E.Maxmudov	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
8.	Lavozimga koʻra	Shahar hokimligi bosh yuriskonsulti
9.	E.Djabekbayeva	Zarafshon shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimining ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish boʻyicha bosh mutaxassisi, **komissiya kotibi**

Izoh: *Komissiya aʼzolari boshqa ishga oʻtgan taqdirda, ularning oʻrniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya aʼzosi hisoblanadi.*

Zarafshon shahar hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
288-5-78-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Zarafshon shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun zaxiraga band qilib qoʻyish lozim boʻlgan korxona, tashkilot va muassasalar roʻyxati.

T/r	Zarafshon shahar	Ularda ishlov-chilar soni	Jami band qilin-gan ish oʻrinlari soni	Shundan								
				Oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz otaga yoki onaga, shuningdek koʻp bolali oilalarning ota-onalariga uchun	Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy taʼlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilariu chun	Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qoʻshinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun	Nogiron-ligi boʻlgan shaxslar uchun	Pensiya-oldi yoshida-gi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanil-gan shaxslar uchun	Qonunchilikka muvofiq oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlanganlar (himoya orderiga) ega boʻlgan shaxslar uchun	Qonunchilikka muvofiq atrofdagilar uchun xavf tugʻirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekayotgan shaxlar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun

1	NKMK AJ Markaziy kon boshqarmasi	**21148**	**82**	15	35	15	2	1	7	3	2	2
2	NKMK AJ Zarafshon qurilish boshqarmasi	**1300**	**8**	1	2	2	1		2			
3	"NKMK jamg‘armasi davlat muassasasi" Zarafshon hududiy boshqarmasi	**1412**	**9**	2		2	1		2	2		
4	"O‘zbek geologiya qidiruv" AJ Qizilqum Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	**866**	**13**	3	2	3	2		2			1
5	"ISSIQLIK MANBAI" DUK Zarafshon filiali (Qozonxona)	**295**	**3**		1	1			1			
6	Zarafshon shahar ko‘p tarmoqli oilaviy poliklinika	**1674**	**22**	4	4	2	3	2	2	3	2	
7	Zarafshon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi	**498**	**15**	3		4			4	2	1	1

8	Viloyat tumanlararo ftiziatriya dispanseri	**123**	**2**				1			1		
9	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemilogik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Respublika o‘lat profilaktika markazi Zarafshon shahar bo‘limi	**60**	**1**		1							
10	Zarafshon shahar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	**120**	**1**		1							
11	7-son Bolalar musiqa va san'at maktabi	**77**	**1**				1					
12	Barkamol avlod bolalar maktabi	**115**	**2**	1	1							

13	Zarafshon shahar sport maktabi	**97**	**1**		1							
14	Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi	**132**	**2**		1		1					
15	Zarafshon sanoat texnikumi	**120**	**2**		1					1		
16	Zarafshon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat texnikumi	**97**	**1**		1							
17	“Navoiy suv ta’minoti” AJ Zarafshon shahar bo‘limi	**243**	**3**		1		1		1			
18	Zarafshon shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	**53**	**1**							1		
19	Zarafshon shahar Madaniyat bo‘limi	**30**	**1**		1							
20	Zarafshon shahar Veterinariya chorvachilikni i rivojlantirish bo‘limi	**26**	**1**		1							
21	Zarafshon	**39**	**1**	1								

	shahar Axborot kutubxona markazi											
22	“Sarbon” ma’suliyati cheklangan jamiyati	**67**	**2**						2			
23	1-maktab	**240**	**2**	1	1							
24	2-maktab	**283**	**2**	1	1							
25	3-maktab	**267**	**3**	1	1		1					
26	4-maktab	**139**	**1**				1					
27	5-maktab	**81**	**1**		1							
28	6-maktab	**90**	**1**	1								
29	7-maktab	**60**	**1**	1								
30	8-maktab	**207**	**2**	1			1					
31	9-maktab	**119**	**2**	1	1							
32	10-maktab	**220**	**2**		1		1					
33	11-maktab	**139**	**2**		1		1					
34	12-maktab	**319**	**2**		1		1					
35	13-maktab	**444**	**3**	1	1					1		
36	Zarafshon shahar "Umid" reablitasiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli	**81**	**1**				1					

	ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti											
37	1-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**123**	**2**	1			1					
38	2-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**145**	**2**	1	1							
39	3-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**44**	**1**		1							
40	4-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**78**	**2**		1		1					
41	5-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**113**	**2**		1		1					
42	6-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**121**	**2**	1	1							
43	7-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**95**	**1**		1							

44	8-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**98**	**1**	1								
45	9-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**116**	**2**	1			1					
46	10-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**105**	**2**	1			1					
47	11-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**53**	**1**		1							
48	12-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**102**	**2**		1		1					
49	13-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**108**	**2**	1	1							
50	14-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**97**	**1**		1							
51	15-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**117**	**2**	1	1							

52	16-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**104**	**2**		1		1					
53	17-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**119**	**2**		1					1		
54	18-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**49**	**1**		1							
55	20-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**116**	**2**	1			1					
56	21-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	**21**	**1**		1							
JAMI:		**33205**	**232**	**47**	**78**	**29**	**28**	**3**	**23**	**15**	**5**	**4**